

Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish YN savollar

1. “Foydali qazilma”, “mineral resurslar”, “ma’dan”, “mineral xom ashyo”, “ma’danli tana”, “ma’dan nishonasi”, “kon” va “ma’danli maydon” tushunchalari o‘zaro qanday bog‘liqlikka ega?
2. Kon, konlarning sanoat turi, konlarning nosanoat turi, to‘plamlar, ma’danli tana, ma’danli to‘plam, ma’dan nishonasi, minerallashgan nuqta, ma’danli maydon, metallogeniya, minerageniya tushunchalariga izox bering!
3. Ma’danli formatsiya, ma’danli komplekslar, stratiformali konlar deganda nimani tushunasiz?
4. Foydali qazilmalar mineral-geokimyoviy va texnologik tavsifi hamda foydalanish sohasi bo‘yicha qanday turlarga bo‘linadi?
5. Foydali qazilmalarni qidirish va razvedka qilish fanning mohiyati va predmeti nimalarda namoyon bo‘ladi?
6. Fanning nazariy asosi deganda nimani tushinasiz?
7. Qidirish va razvedka qilish obyekti nima?
8. Konlarni qidirish va razvedka qilish to‘g‘risidagi fanning asosiy maqsadi nima?
9. Foydali qazilmalarni qidirish va razvedka qilish haqida qanday tarixiy ma’lumotlarni bilasiz?
10. Foydali qazilma konlarini geologiya–razvedka ishlari qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
11. Foydali qazilmalarning morfologiyasi deganda nimani tushunasiz?
12. Yotqiziqlar qalinligi va turg‘unligining qanday sinfi va turlarini bilasiz?
13. Foydali qazilmalarning sifati qanday parametrlar bilan aniqlanadi?
14. Ma’danli tanalar yotish sharoitlari bo‘yicha qanday farqlanadi?
15. Yondosh jinslar kesmasining turg‘unligi qanday omillar bilan harakterlanadi?
16. Foydali qazilmalarni qazib olish sharoitlari qanday geologik–sanoat parametrlar bilan harakterlanadi?
17. Foydali qazilma yotqiziqlarining o‘zgaruvchanligi deganda nimani tushunasiz?
18. Konlarning o‘lchamlari nimalar asosida aniqlanadi?
19. Zaxiralar konsentratsiyasi deganda nimani tushunasiz?
20. Foydali qazilmalarning sanoat turlarini gapirib bering.
21. Foydali qazilmalarni geologik qidiruv darakchilari deganda nimani tushunasiz?
22. Stratigrafik geologik qidiruv darakchilari mohiyatini tushuntiring!
23. Litologik geologik qidiruv darakchilari nima?
24. Strukturaviy geologik qidiruv darakchilari nimalarni ifodalaydi?
25. Magmatogen geologik qidiruv darakchilari deganda nimalar nazarda tutiladi?
26. Geokimyoviy geologik qidiruv darakchilari mohiyatini aytib bering!
27. Geomorfologik geologik qidiruv darakchilari yordamida qanday konlarni qidirish samarali hisoblanadi?
28. Foydali qazilmalarni qidirishda qanday qidirish belgilaridan foydalaniladi?

29. Foydali qazilmalarni qidirishning bevosita belgilari deganda qanday belgilarni tushunasiz?
30. Foydali qazilmalarni qidirishda ularning ochilib qolgan joylari qanday ahamiyatga ega?
31. Dolomitlashgan jinslar kanday konlar uchun bilvosita qidirish belgilari hisoblanadi?
32. Qidirish maqsadlari uchun gidrotermal jarayonlarda vujudga keluvchi xloritlashgan jinslar qanday ahamiyatga ega?
33. Seritsitlashgan jinslar qanday foydali qazilma konlarining muhim qidirish belgilari hisoblanadilar?
34. Kvarslashgan jinslar bilan qanday foydali qazilmalar bog‘liq?
35. Skarnlar va skarnlashgan jinslar va greyzenlashish jarayonlari bilan qanday foydali qazilmalar uchraydi?
36. Ma’danli jinslar atrofidagi o‘zgarishlardan qidirish belgilari sifatida foydalanish mumkinmi?
37. Foydali qazilma moddalarning sochilish oreollari va oqimlari deganda nimani tushunasiz?
38. Ma’danli moddalarning birlamchi sochilish oreollari nima?
39. Ikkilamchi sochilish oreollari nima?
40. Ikkilamchi sochilish oqimlari deganda nimani tushinasiz?
41. Ikkilamchi sochilish oreollari va oqimlari qanday turlarga bo‘linadi?
42. Ikkilamchi mexanik sochilish oreollari va oqimlari qanday xosil bo‘ladi?
43. Tuzli sochilish oreollari va oqimlari qanday hosil bo‘ladi?
44. Suvli(gidrogeokimyoviy) sochilish oreollari va oqimlarining hosil bo‘lish jarayonini tushintirib bering!
45. Gazli yoki atmogeokimyoviy oreollar qanday vujudga keladi?
46. Biokimyoviy sochilish oreollari qanday namoyon bo‘ladi?
47. Foydali qazilmalarni qidirishda qanday belgilar bilvosita qidirish belgilari hisoblanadi?
48. Ma’dan atrofidagi jinslarning o‘zgarishi deganda qanday o‘zgarishlar nazarda tutiladi?
49. Jinslarning serpentinizatsiyasi bilan qanday foydali qazilmalar bog‘liq?
50. Geologik haritalash va qidiruv ishlari qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
51. Foydali qazilmalarni qidirish ishlari qanday bosqichlarida amalga oshiriladi?
52. Tavsiy qidirish bosqichida qanday vazifalarni bajarish nazarda tutiladi?
53. Umumiy qidirish bosqichining vazifasi nima?
54. Qidirish–baholash bosqichining vazifasi nima?
55. Foydali qazilmalarning qanday qidirish usullarini bilasiz?
56. Qidirishning geologik sur‘atga olish usulining mohiyati nimadan iborat?
57. Qidirishning daryo - bo‘laklari usuli mohiyatini tushintiring?
58. Qidirishning muzlik-g‘o‘laklari usuli qanday usul?
59. Qidirishning shlixli usuli qanday amalga oshiriladi?
60. Qidirishning geofizik usullari mohiyatini ochib bering!
61. Qidirishning sun‘iy ochilmalar usuli qanday usul?

62. Namunalashdan qo‘zlangan bosh maqsad nima?
63. Kimyoviy tahlil uchun namunalar nima uchun xizmat qiladi?
64. Mineralogik namunalashdan ko‘zlangan maqsad nima?
65. Texnologik namunalash deganda qanday namunalashni tushinasiz?
66. Texnik namunalash nima va ular nima maqsadda olinadi?
67. Namunalarni qayta ishlash operatsiyasi deganda nima ko‘zda tutiladi?
68. Namunalashning qanday usullarini bilasiz?
69. Namunalashning shtufli usulining mahiyati nimada?
70. Namunalashning nuqtali usuli qanday usul?
71. Namunalashning jo‘yakli usulini tushuntiring!
72. Namunalashning shpurli usuli deganda qanday usulni tushinasiz?
73. Namunalashning zadirkali usuli qanday xollarda qo‘llaniladi?
74. Namunalashning yalpi usuli mazmuni va mohiyatini tushuntiring!
75. Burg‘u quduqlarini namunalashning chiziqli usuli qanday amalga oshiriladi?
76. Namunalarni qayta ishlash deganda nimani tushunasiz va u asosan qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
77. Namuna olish va uni qayta ishlashda qanday analitik, texnik va texnologik tadqiqotlar bajarilishi lozim?
78. Namunalashni nazorat qilish qanday jarayondarda amalga oshiriladi?
79. Razvedka maqsadini ta’riflang, uning tamoyillarini sanab bering.
80. Razvedka bosqichlari qanday ajratiladi?
81. Razvedkaning texnik vositalarini tanlash qanday amalga oshiriladi?
82. Razvedka tizimini tanlashga geologik va tog‘-texnologik omillar qanday ta’sir ko‘rsatadi?
83. Razvedka usullarini sanab bering. Ular qidiruv usullaridan nimasi bilan farq qiladi?
84. Razvedka to‘ri nima?
85. Razvedka ishlarini olib borish qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
86. Dastlabki razvedkaning bosh maqsadi nima?
87. Tavsiliy razvedka ma’lumotlari asosida qanday ishlar amalga oshiriladi?
88. Eksploatatsion razvedkani o‘tkazilishdan qo‘zlangan maqsad nima?
89. Razvedkaning ishonchliligi deganda nimani tushunasiz?
90. Ma’danli tanalarni kuzatib borish va chegaralash(konturlash) qanday usullarda amalga oshiriladi?
91. Interpolyatsiya nima?
92. Razvedka to‘rlari nima va ularning qanday turlarini bilasiz?
93. Razvedka tarmoqlarining zichligi deganda nimani tushunasiz?
94. Razvedka to‘rlari zichligini aniqlash uchun qanday statistik ma’lumotlardan foydalaniladi?
95. Razvedka chiziqlari va to‘rlari sonini orttirish tamoyili nimaga asoslangan?
96. Razvedka lahimlarini o‘tish tartiblari haqida nimalarni bilasiz?
97. Geologik razvedkaning bosh vazifasi nimadan iborat?
98. Razvedka ishlarini olib borishda qanday holatlar razvedka ishlarini murakkablashtiruvchi holatlar hisoblanadi?

99. Razvedkaning bosh vazifasini yechish uchun razvedka jarayonida nimalarga e'tibor qaratish lozim?
100. Razvedka ishlarini olib borish uchun qanday mahsus razvedka qilish texnikalari va usullaridan foydalanish talab etiladi?
101. Razvedka ishlarini o'tkazish uchun qanday hujjat asos bo'lib hisoblanadi?
102. Razvedka ishlarini o'tkazish uchun tuzilgan loyihaning tarkibi haqida namalarni bilasiz?
103. Razvedka ishlariga tayyorgarlik va razvedka o'tkazish bosqichlarida qanday ishlar amalga oshiriladi?
104. Umumlashtiruvchi kameral qayta ishlash bochiqichida qanday ishlar amalga oshiriladi?
105. Geologik hujjatlash deb qanday hujjatlashni tushunasiz?
106. Qanday materiallar geologik hujjatlash materiallari hisoblanadi?
107. Geologik hujjatlashning qanday standart shakllarini mavjud?
108. Geologik tanalarning makondagi xolatini va o'lchamlarini aniq ko'rsatish uchun qanday ish turlari bajariladi?
109. Topo–geodezik ishlarni bajarishda qanday operatsiyalar amalga oshiriladi?
110. Marksheyderlik ishlarida qanday ishlar amalga oshiriladi?
111. Geologik hujjatlashning mazmuni va shakllari deganda nimani tushunasiz?
112. Kanavalar nima va ular qanday hujjatlashtiriladi?
113. Kanavalarni hujjatlash qanday ketma-ketlikda amalga oshiriladi?
114. Shurflarni hujjatlash qanday tartibda amalga oshiriladi?
115. Yer osti lahimiga qanday lahim turlari kiradi va ularning hujjatlash tartibi qay tarzda olib boriladi?
116. Shtolnyalarni hujjatlash qanday tartibda amalga oshiriladi?
117. Shaxtalarni hujjatlash tartibi shurflarni hujjatlash tartibidan qanday farq qiladi?
118. Burg'ulash quduqlarini hujjatlash qanday tartibda amalga oshiriladi?
119. Konning geologik–iqtisodiy baholash deganda nimani tushunasiz?
120. Konlarni geologik–iqtisodiy baholashdan qo'zda tutilgan asosiy maqsad nima?
121. Foydali qazilma konlari qanday tamoyillar asosida geologik–iqtisodiy jixatdan baholanadi?
122. Mamlakat iqtisodiyotini mineral xom–ashyolarga bo'lgan extiyojlarini maksimal qondirish tamoyili mohiyati tushuntirib bering?
123. Baholash ko'rsatgichlarini nisbatan to'liq va ishonchli aniqlashga bosqichma–bosqich yaqinlashish tamoyili qanday tamoyil?
124. Yer qa'ridan to'la va kompleks foydalanish deganda nimani tushunasiz?
125. Mineral xom ashyolar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan harajatlar deganda qanday harajatlarni tushunasiz?
126. Foydali qazilma konlarini baholashni belgilovchi dastlabki ma'lumotlarni qanday guruhlariga birlashtirish mumkin?
127. Konning qazib olish usuli va tizimlarini tanlash deganda nimani tushunasiz?
128. Korxonaning yillik quvvati qanday omillarga bog'liq ravishda belgilanadi?

129. Tog‘-kon korxonasining maksimal yillik quvvat qanday aniqlanadi?
130. Kar‘erlarning va yer osti rudniklarining yillik ishlab chiqarish quvvati qanday aniqlanadi?
131. Tog‘-kon ishlab chiqarish korxonalariga mablag‘lar kiritish necha turga bo‘linadi?
132. Tog‘-kon ishlab chiqarish korxonalari uchun nisbiy kapital ajratmalar qanday aniqlanadi?
133. 1 tonna mahsulot konsentrati ishlab chiqarish uchun nisbiy kapital ajratmalar qanday aniqlanadi?
134. Foydali qazilmalar tannarxini hisoblash qanday amalga oshiriladi?
135. Mineral xom ashyolar konditsiyasi deganda nimani tushunasiz?
136. Mineral xom ashyolar konditsiyasini asoslash uchun qanday parametrlardan foydalaniladi?
137. Konditsiyalarni texnik-iqtisodiy jixatdan asoslashda qanday ko‘rsatgichlarni aniqlash talab etiladi?
138. Konditsiyaning asosiy ko‘rsatgichlari deganda qanday ko‘rsatgichlar nazarda tutiladi?
139. Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari o‘rganilganlik darajasi bo‘yicha qanday toifalarga bo‘linadi?
140. Foydali qazilma toifalarining bashorat resurslaridan farqi nimada?
141. Balansdagi zaxiralar balansosti zaxiralaridan qanday farq qiladi?
142. Zaxiralarni hisoblash qanday materiallarga asoslanadi?
143. Razvedka materiallaridan olingan qanday ma’lumotlar zaxiralarni hisoblash uchun dastlabki ma’lumotlar bo‘lib hizmat qiladi?
144. Foydali komponent zaxirasini hisoblashda uning qanday miqdoridan kelib chiqiladi?
145. Foydali qazilmalarning o‘rtacha miqdori qanday hisoblanadi?
146. Burg‘ulash quduqlarini namunalash ma’lumotlari bo‘yicha foydali qazilmaning o‘rtacha miqdori qanday aniqlanadi?
147. Kon zaxiralarini konturlashning geologik-iqtisodiy mezonlari deganda nimani tushunasiz?
148. Zaxiralarini konturlashda qanday mezonlardan foydalaniladi?
149. Ishlab chiqarish amaliyotida konturlash ishlari qanday ketma-ketlikda bajariladi?
150. Zaxiralarni konturlash qanday ma’lumotlarga asoslanib amalga oshiriladi?
151. Interpolyatsiya va ekstrapolyatsiya nima?
152. Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari o‘rganilganlik darajasi bo‘yicha qanday toifalarga bo‘linadi?
153. Foydali qazilmalarning bashorat resurslari deb qanday resurslarga aytiladi?
154. Razvedka qilingan konlarning geologik tuzilishi va sanoatda o‘zlashtirishga tayyorlashning murakkabligi bo‘yicha qanday guruhlariga bo‘linadi?
155. Qattiq foydali qazilma konlari zaxiralarini hisoblashda qanday usullardan foydalaniladi?
156. Razvedka qilinganlik darajasini maksimal asoslash, hisoblanadigan parametrlarning o‘rtacha qiymatlarini, ularning interpolyatsiyalash va

ekstrapolyatsiyalash chegaralarini ishonchli aniqlash imkoniyatini beradigan zaxiralarni hisoblash usuli qanday nomlanadi?

157. Tog' lahimlari bilan konturlangan va shu bilan bir vaqtda tavsiliy namunalari olinib to'liq o'rganilgan bloklar qanday nomlanadi?

158. Murakkab shaklli va razvedka lahimlari tizimi bilan razvedka qilingan va ular asosida vertikal geologik kesmalar yoki gorizontallar bo'yicha planlar tuzish mumkin bo'lgan va nometal konlarninig zaxiralarini hisoblash uchun qo'llaniladigan zaxiralarni hisoblash usuli qanday nomlanadi?

159. Neft konlarining zaxiralari qanday usullarda hisoblanadi?

160. Neft konlari zaxiralarini hisoblashning hajmiy usuli mohiyatini gapirib bering

161. Neft konlari zaxiralarini hisoblashning qiyosiy usuli mohiyatini yoritib bering

162. Neft konlari zaxiralarini hisoblashning eksploatatsiya egri chiziqlari usuli mohiyatini tushuntirib bering

163. Gaz konlarining zaxiralari qanday hisoblanadi?

164. Ko'mir konlarining zaxiralari qanday hisoblanadi?

165. Foydali qazilma zaxiralarini hisoblashdagi hatoliklar deganda qanday hatoliklar tushuniladi?

166. Foydali qazilma zaxiralarini hisoblashdagi texnik hatoliklar deganda qanday hatoliklar tushuniladi?

167. Razvedka ma'lumotlarini umumlashtirishdagi geologik hatoliklar deganda qanday hatoliklar tushuniladi?

168. Zaxiralarni hisoblashda tuzatish koeffitsientlari qanday ahamiyatga ega?

169. Foydali qazilma zaxiralarini baholashda kompyuter texnika vositalari imkoniyatlaridan foydalanish deganda nimani tushunasiz?